

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR MULOQOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Vaxobova Muxtabar- Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy psixologiya kafedrasida stajyor o‘qituvchisi,

Nurillayeva Sevinch -Jizzax davlat pedagogika universiteti I bosqich talabasi

vaxobovamuxtabar0307@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda o‘smirlarning ota-onalari bilan vujudga kelayotgan kelishmovchiliklarning ijtimoiy-psixologik omillari va uni hal etish borasidagi qarashlar yoritilgan.

Kalit so‘z: Kichik maktab yoshi, nutq, muloqot, gipermuloqotchanlik, shaxslararo munosabatlar.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev “Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” deya o‘z o‘ziga kelayotgan yosh avlodning mustaqil fikrlashi alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Bolalar maktab yoshiga yetganda ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlari yangicha mazmun kasb etadi. Bola ilgari ota-onasi, guruhdagi tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqotda bo‘lgan bo‘lsa, endi maktab o‘qituvchisi, sinf rahbari bilan muloqotda bo‘ladi. Bolalarda bu davrda mas’uliyat hissi shakllanadi. Bolalar **nutqining o‘shida** ularning maktabda o‘qishi katta rol o‘ynaydi. Bola maktabgacha yoshda o‘ylamasdan gapiradi, maktabda esa u gaplashayotgan til o‘qitiladigan va o‘rganiladigan ilm bo‘lib qoladi. Grammatikani o‘qib o‘rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihati to‘g‘ri bo‘lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o‘qitilayotgan hamma fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchi so‘z boyligi ortadi, so‘zlarning mazmuni uning uchun chuqurlashadi va kengayadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o‘shida muhim bosqich bo‘ladi. Bola o‘z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O‘quvchi o‘qituvchining topshirig‘iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o‘zining shu ishiga o‘z fikrining qanday til bilan bayon qilinganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O‘quvchi maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o‘ziga o‘zi gapirib berishni mashq qilib turishi nutqining o‘shiga katta ta’sir qiladi. Bolalar nutqining o‘shida o‘qituvchining nutqi katta rol o‘ynaydi, chunki uning nutqi o‘quvchilar uchun namuna hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi kerak. Maktabda bolalar uchun eng avvalo faol ishlatiladigan

soʻzlamining miqdori oshadi. Yozma nutqni, oʻqish va yozishni oʻzlashtirish oʻquvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Yozma nutqda imo-ishora, ohangdan foydalanilmaydi. Shu bois bolalarning yozma nutqlari ulaming ogʻzaki nutqiga qaraganda ancha boʻsh boʻladi. Bolalar nutqi kattalar nutqi taʼsirida oʻsadi. Shuning uchun pedagoglar bolalarga kichik maktab yoshidan boshlab **ogʻzaki va yozma** nutqni oʻstirish bilan birga nutq madaniyatini ham oʻrgatib borishlari zarur.

Kichik maktab davrida bolaning boshqa insonlar bilan munosabatlarida katta oʻzgarishlar roʻy beradi. Bolaning muloqoti endi aniq maqsadga qaratilgan boʻladi. Bunga sabab bir tomondan oʻqituvchining faol taʼsiri boʻlsa, ikkinchi tomondan oʻquv jamoasining koʻrsatadigan taʼsiridir. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar sinfida jamoa bilan muloqot qilish jarayonida turli darajadagi oʻquvchilar bor: giper-muloqotchan (sergap) bolalardan dars holatidan qoʻrqadigan: javob berishga uyaladigan, tortinchoq yoki darsga quloq solmaydigan oʻquvchilar ham boʻlishi mumkin. Ularda maktab davrigacha oilada, bogʻchada muloqot koʻnikmalari shakllangan boʻladi. Masalan, bola yoshligidan oilasi davrasida **salomlashish, minnatdorchilik bildirish** kabi muloqot koʻnikmalarini oʻzida shakllantiradi. Ammo maktab jamoasiga kirishib ketish, oʻz tengdoshlari bilan muloqot olib borish sekin amalga oshadi. Ular avvalo, bir-birlarining hatti-xarakatlarini kuzatishadi, oʻzaro bir-birlariga nisbatan taqlid qilishadi. Ayrim kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar maktabda, tengdoshlari oldida muloqot qilishdan uyalishadi, oʻzlarini chetga tortishadi, lekin ular oilasi davrasida erkin oʻz fikrini bemalol bayon qilishadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar muloqotining xususiyatlari kam oʻrganilgan. Ayni paytda, psixologik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, kichik maktab yoshida kattalar bilan muloqot shaxs rivojlanishining yetakchi omillaridan biri hisoblanadi (L.I.Bojovich, V.V.Davidov, D.B.Elkonin). Bu yoshda kattalar bilan, birinchi navbatda oʻqituvchi bilan muloqot, bolaning pozitsiyasi, uning boshqalar bilan munosabatlari tizimi tubdan oʻzgarganda, maktabga oʻtish munosabati bilan alohida ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar va oʻqituvchi oʻrtasidagi muloqot taʼlim jarayoniga moslashish davridan boshlanadi. Oʻquvchilar oʻqituvchi bilan nafaqat shaxsiy, balki maxfiy muloqot qilish istagi ham paydo boʻladi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning oʻqituvchi bilan olib boriladigan muloqoti oʻquv faoliyati motivlariga va tengdoshlari bilan munosabatlariga ham taʼsir qiladi. Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi- oʻzini- oʻzi ortiqcha yoki past baholash tufayli oʻziga va uni qurshab turgan odamlarga notoʻgʻri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud boʻlib, asosan, quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samara beradi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha aʼzolari oʻrtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir aʼzoning qulay mavqeini taʼminlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to‘g‘risidagi axborotni egallashiga oid maxsus mashg‘ulotlarni uyushtirish;

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo‘ljallangan ishbilarmonlik o‘yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

Ko‘pchilik kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda **tortinchoqlik, uyalish, muloqotga kirisha olmaslik** xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarni tez-tez doskaga biron narsani yozib berish yoki biron narsani o‘qib berish uchun chiqarsa, hamda turli rollar bo‘lib berib ularni ijro ettirsa ham ulardagi uyalish, tortinish hissi yo‘qolib, tortinmaydigan, o‘z fikrini bemalol ayta oladigan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.: O‘zbekiston. 2017, 488-bet
2. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. o‘quv qo‘llanma. — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006.— 119 b.
3. E. G‘oziyev. Muomala psixologiyasi. T.2001
4. Muxtabar Vaxobova, O‘quvchilarda o‘quv motivlarini texnologiyalar asosida rivojlantirish, Ta’lim, fan va innovatsiya.ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274 1-son 2024, 87-bet.
5. Vохobova Muxtabar, Камолова Ширин Усаровна, Основные особенности гендерного воспитания дошкольников, Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 15, February, 2023
6. Qodirova Malikaxon Kaxramonovna, Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi AQLIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNDA TESTLARDAN FOYDALANISH «Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an’analar va istiqbollar» mavzuidagi I-xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2-qism). Jizzax, 2023. – 398 bet.
7. Jumanova, N & Vahobova, M. (2022). Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishning psixologik jihatlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php>.
8. Вахобова Мухтабар, развитие интеллектуальных способностей младших школьников. International conference of education, research and innovation 2023 Samara, Russian Federation. -127-131-betlar. <https://academicsresearch.ru/index.php/ICERI/article/view/1213>
9. Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi, Kichik maktab yoshidagi bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish xususiyatlari «O‘zbek filologiyasining dolzarb masalalari va uni o‘qitish metodikasi muammolari» mavzusidagi II-an’anaviy ilmiy-amaliy xalqaro anjuman materiallari (2-kitob). Jizzax, dekabr, 2023. – 322- bet.
10. Vaxobova, M. (2024). O‘SMIRLARNING OTA-ONALARI BILAN MUNOSABATLARIDAGI MUAMMOLAR. Журнал Педагогики и психологии

- в современном образовании, 4(2), 53-57. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9696>
- 11.Rahmanqulov, S. (2024). O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA IJTIMOIIY DEVIANT XULQ ATVORINI O‘RGANISHDA PROYEKTIV METODIKALARNING O‘RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9850>
- 12.RAHMANQULOV, S. (2024). YOSHLARDA FAOL HAYOTIY POZITSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 181-184.
- 13.Abduhamidovich, R. S. (2023). O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TA’LIM TIZIMINI CHET EL TA’LIM TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO ‘NALISHLARI. Conferencea, 97-101.
- 14.Abduhamidovich, R. S. (2023). AKADEMIK MOBILLIK–BOLONIYA JARAYONLARINING MUHIM SHARTI SIFATIDA. Conferencea, 126-131.
- 15.Баратуллаева, Д. (2024). AYOLLARDA STRESS KECHISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 48-52. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9695>
- 16.Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>